Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 902

XX asrning 20–30-yillaridagi O‘zbekistonning ilm-fan rivojlanishidagi yutuq va muammolar

Zohidjon Rasulovich Isomiddinov*
Farg‘ona viloyati, Bag‘dod tumani 2-IDUM direktori
✉ isomiddinovzohidjon221@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada XX asrning 20–30-yillarida O‘zbekistonda ilm-fan, ilmiy kadrlar tayyorlash va madaniy rivojlanish jarayonlari yoritilgan. Sovet totalitar tuzumi va siyosiy qatag‘onlarning ilm-fan taraqqiyotiga ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, arxeologiya, tarix, adabiyot va tabiiy fanlardagi yutuqlar, aspiranturalarning tashkil etilishi hamda mahalliy olimlarning ilm-fanga qo‘shgan hissasi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar

O‘zbekiston, XX asr, ilm-fan, ilmiy kadrlar, qatag‘on, sovet tuzumi, aspirantura, arxeologiya, tarix, madaniyat.

DOI: 10.5281/zenodo.23281740

KIRISH

XX asrning 20–30-yillaridagi O‘zbekistonning ijtimoiy-madaniy rivojlanishi ilm-fan va ilmiy kadrlarni tayyorlash muammolari bilan chambarchas bog‘liq bo‘ldi. Ularni hal etish sovet mustabid boshqaruv tizimi hukmronlik qilgan ziddiyatli og‘ir bir sharoitda kechdi.

Qatag‘onlar va siyosiy terrorning kuchayishi mamlakat ilm-fanining rivojiga sun’iy to‘siqlar uyg‘otgan. Bir tomondan, respublikada ilmiy salohiyatning muayyan darajada o‘sishi ko‘zga tashlanib, ilmiy xodimlarning soni va tadqiqotlar yo‘nalishlari ortgan bo‘lsa, ikkichi tomondan, boshqaruvning buyruqbozlik usullari va taniqli olimlarning ko‘plab qamoqqa olinishi ilmiy ijod erkinligini bo‘g‘ib qo‘ygan hamda uning umumjahon tamaddudi yo‘lidan borishiga imkon bermagan.

Ushbu vaqtda ijtimoiy fanlar sohasida ham bir qator ilmiy izlanishlar olib borilib, olimlar katta muvaffaqiyatlarga erishgan. Biroq, jamiyatshunoslikda ma’muriy tazyiq o‘tkazishning qudratli mexanizmi ishga solinib, shaxsga sig‘inish va ommaviy qatag‘onlar sharoitida xolis ilmiy izlanishlar o‘tkazishga imkon bermagan va natijada olimlar o‘z tadqiqotlarini kommunistik mafkuraning ayrim doiralari bilan cheklashga majbur bo‘lgan.

Bu davrda falsafa fani nihoyatda siyosatlashtirilib, u mustabid imperiya hokimiyati uchun xizmat qiluvchi g‘oyaviy qurolga aylantirilgan. Shunigdek, hukmron kommunistik partiya harakati va talabi tufayli markscha-lenincha g‘oyalar keng yoyilib, demokratiya, milliy suverinitet va taraqqiyot muammolari ilmiy tahlilsiz qolib ketgan.

XX asrning 30-yillarida O‘zbekistonda tarix fanining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan yirik olimlardan biri, tarixchi, professor Po‘lat (Bulat) Soliev edi. U 1882 -yilning 22 martida Astraxanda tug’ilib, Ufa va Qozon madrasalarida tehsil olgach butun umrini Turkistonda o‘tkazgan va uning, ta’lim va ilm-fan taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan biroq, sovetlarning qatag’on siyosati tufayli 1937-yil 13 oktyabrda Toshkentda otib tashlangan. U hozirgi kunda ham o‘z ilmiy qiymatini saqlab qolgan bir qator asarlar yaratib, mamlakatning tarix fani rivojiga katta hissa qo‘shgan. Jumladan, “O‘zbekiston tarixi (XV-XIX asrlar)”, “O‘rta Osiyo tarixi”

(1-qism), “O‘rta Osiyoda islomning tarqalishi”, “Hindiston Angliya zulmi ostida”, “O‘zbekiston va Tojikiston”, “Buxoro tarixi” kabi asarlar yaratib tarixiy haqiqatlarni yuzaga kelishiga munosib xizmat qilgan.

Siyosiy rahbariyatning tarixchi olimlarga nisbatan amalga oshirgan qatag‘onlik xatti-harakatlari VKP(b) MQ va SSSR XKK ning 1934-yil 13 maydagi fuqarolik tarixini o‘qitish to‘g‘risidagi qarori va sovet tarix fanini rivojlanish masalalariga doir qarorlaridan keyin kuchaygan va natijada, tarix fanida aqidaparastlikdan iborat markscha-lenincha usul qaror topgan.

Tadqiq qilinayotgan davrda respublika arxeologiya fani sezilarli darajada rivojlanib, Ya.G‘.G‘ulomov, M.E.Masson, A.Yu.Yakubovskiy, V.A.Shishkin, S.P.Tolstov kabi olimlar bu fanga oid qator yangi ilmiy yangiliklarni e’tirof etgan. Mazkur olimlarning asarlari orqali g‘oyat qimmatli arxeologik ma’lumotlar ilmiy muomalaga kiritilib, O‘rta Osiyoni jahon madaniyatining Sharqdagi asosiy markazlaridan biri ekanligi isbotlangan.

1936–1939-yillar mobaynida bir qator taniqli arxeologlardan tashkil topgan Termiz kompleks ekspeditsiyasi tashkil etilib, ular olib borgan tadqiqotlar qator ilmiy kashfiyotlarga olib kelgan. Aynan, shu olimlarning sayi-harakatlari bilan Teshiktosh g‘orida Muste davriga oid manzilgoh va unda neandartal bolaning suyagi topilgan.

1937-yilda S.P.Tolstov boshchiligida Ya.G‘.G‘ulomov ishtirok etgan Xorazm arxeologik – etnografik ekspeditsiyasi ham fanga oid ko‘plab yangiliklarni kashf etishga muyassar bo‘lgan. Ekspeditsiya O‘rta Osiyo xalqlari, xususan, Xorazm xalqining qadimgi tarixi to‘g‘risida boy materiallar to‘plab, ko‘proq bronza davri mazilgohlarini kashf etdi. Ular O‘zbekiston xalqlarining kelib chiqishi va qadimgi madaniyati to‘g‘risidagi bilimlarni ancha boyitib, Xiva shahriga doir moddiy va qo‘lyozma obidalar, O‘zbekistondagi sug‘orma dehqonchilik tarixiga oid tadqiqotlar olib borgan.

Olib borilgan arxeologik tadqiqotlardan ma’lum bo‘ladiki, O‘rta Osiyoda ilk paleolit davridayoq odamlar yashay boshlagan va u jahon tamadduning eng qadimgi o‘choqlaridan biri hisoblangan. Sug‘orma dehqonchilikning vujudga kelishi va uning asosiy rivojlanish bosqichlarini aniqlash, umumiy tarzda bo‘lsa ham, konchilik, metallurgiya, shahar va qishloq manzilgohlari tarixini yoritishga, O‘rta Osiyo xalqlarining o‘ziga xos madaniyati yuqori darajada bo‘lganligiga guvohlik beruvchi yodgorliklarni kashf etishga muvaffaq bo‘ldi[1].

Mazkur vaqtda adabiyot ilmi ham rivojlanib, kata yutuqlatr qo‘lga kiritilgan. Biroq, sovetlar adabiy harakatni mafkuralashtirish maqsadida 1930-yilda O‘zbekiston proletar yozuvchilari uyushmasini tashkil etgan. Lekin u tashkiliy masalalardan nariga o‘tmadi, chunki kuchli adabiy guruhlar mafkuralashtirishga qarshilik ko‘rsatishdi, ular adabiyotning xalqchilligi va adabiy ijod erkinligi tamoyillarini qattiq himoya qilgan.

Ammo, bularning hammasiga VKP (b) MKning 1932-yildagi “Adabiy-badiiy tashkilotlarni qayta qurish to‘g‘risida”gi qarori chek qo‘yib, shu vaqtdan e’tiboran kommunistik partiyaning hohish-irodasi bilan o‘zbek adabiyotshunoslari asarlarida aqidaparastlikdan iborat markscha-lenincha ta’limotining g‘oyaviy platformasi qaror topgan.

Natijada badiiy asarni, umuman, yozuvchi faoliyatini baholashda mafkura siyosat mezon bo‘lib qolgan va ijodkorlardan voqelikni faqat sinfiylik, kommunistik mafkura nuqtai nazaridan aks ettirish talab etilgan. Shuning uchun mumtoz adabiyotdan voz kechish tamoyili hukm surgan va hatto uni o‘rganish va tadqiq qilish ziyon deb e’lon qilinib, ijod erkinligi bo‘g‘ilgan[2, 9-30 betlar].

Sovet yozuvchilarining 1934-yilda Moskvada bo‘lib o‘tgan I Butun Ittifoq s’ezdi “sotsialistik realizm adabiyoti” degan uslubiy tamoyilni e’lon qilishi natijasida chetga chiqmoqchi bo‘lgan ijodkorlarga turli ayblar qo‘yilgan. O‘zbekiston olimlarining birinchi qurultoyi 1937-yil 25-mayda Samarqandda bo‘lib, unda 200 ta ilmiy xodim, jumladan, Moskva, Leningrad va bir qator ittifoqdosh respublikalardan vakillar ishtirok etgan. Mazkur yig’ilishda respublika XKK raisi F.Xo‘jaev O‘zbekistonda ro‘y berayotgan dastlabki o‘zgarishlarning borishini tahlil qilib, olimlar oldida turgan dolzarb vazifalarga to‘xtalib o‘tgan. Qurultoyda so‘zga chiqqanlar respublika ilmiy muassasalari ishidagi bir qator kamchiliklarni, xususan, ishlab chiqilayotgan mavzularning xalq xo‘jaligi ehtiyojlari bilan yetarli darajada bog‘lanmaganligini, yosh olimlarning tadqiqotlariga e’tibor sustligini ko‘rsatib o‘tilgan[3, C-54]. Lekin, bu vaqtda siyosiy vaziyat tufayli yurt taraqqiyotiga ko‘proq hissa qo‘shadigan fanlar haqida jiddiy muammolar ko‘tarilmay qolgan.

Respublika ilm-fani ijtimoiy ahamiyatining oshishi ko‘p jihatdan ilmiy xodimlar salohiyatining rivojlantirilishiga bog‘liq bo‘lib, ilmiy xodimlar tayyorlash, asosan, aspirantura orqali amalga oshirilgan.

O‘zbekistonda dastlabki aspirantura 1929-yilda O‘rta Osiyo davlat universiteti huzurida tashkil etilgan edi. Unga oliy o‘quv yurtini muvaffaqiyatli tamomlab chiqqan ilmiy ishga iqtidori bo‘lgan eng iste’dodli yoshlar qabul qilingan. 1930-yilda Toshkent tibbiyot institutida ham aspirantura ochilib, unga yuqori malakali tibbiyot xodimlari qabul qilingan va ilmga yo‘naltirilgan. Mazkur oliygohning dastlabki tinglovchilari orasida O‘zbekiston tibbiyot va biologiya fanlari rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan J.Abdurasulov, D.A.Abilov, E.I.Otaxonov, O.B.Bobojonov, J.Maqsumov, J.M. Malikov, Yo.X.To‘raqulov, H.U.Usmonov kabi yutuk olimlar bo‘lgan. Shu bilan birga 1932-yilda O‘zbekiston Pedagogika akademiyasida va O‘zbekiston XKK huzuridagi ilmiy-tadqiqot institutida ham aspiranturalar tashkil etilgan.

O‘rta Osiyo va O‘zbekiston Davlat universitetlarida ilmiy kadrlar tayyorlash borasida katta ishlar amalga oshirilgan. Masalan, 1935-yilda O‘rta Osiyo Davlat universiteti aspiranturasida 49 kishi ta’lim olgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 1939-yilda – 83, 1940-yilda 100 kishini tashkil etgan. Faqat 1929 -yildan 1936-yilgacha bo‘lgan davrda universitet aspirantura orqali mahalliy millat yoshlaridan 28 nafar ilmiy xodim tayyorlab, ularning 5 nafari fizika – matematika, 8 – biologiya, 15 – kimyo sohasiga mansub edi. Shu davrda Moskva va Leningradda o‘zbeklardan 55 nafar ilmiy xodim tayyorlangan. 30-yillarning ikkinchi yarmida Moskva va Leningradda o‘qigan aspirantlar orasida keyinchalik mashhur olim bo‘lib yetishgan O.Sodiqov, F.O.Mavlonov, N.A.Kenesarin, H.Rahmatullin, R.Alimov kabilar bor edi[4, C-63].

1933–1936 -yillarda O‘zbekiston Davlat universiteti aspirantura orqali 39 nafar ilmiy xodim tayyorladi, ularning 26 nafari o‘zbeklar bo‘lib, 7 nafari tarixchi, 3 nafari iqtisodchi, 8 nafari fizik va matematik, 7 nafari kimyogar edi. O‘zDU da 1933–40-yillarda jami 101 kishi aspiranturada o‘qidi, shulardan 76 nafari mahalliy millatlar vakillari edi. Nomzodlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli yoqlaganlar orasida M.Mo‘minov, O.O‘marov, V.Abdullaev, I.Mo‘minov, X.F.Chikaev, Yu.N,Alekserov, M.Abdulqosimov, M.Sobirov, R.Iskandarov, U.Tursunov va boshqalar bor edi. Keyinchalik ularning aksariyati fan doktori va professor hamda akademik bo‘lib yetishdi[4].

Toshkent tibbiyot institutida 1930–1940-yillarda aspiranturada o‘qigan 82 kishining 54 nafari mahalliy millat vakillari bo‘lib, 47 kishi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli yoqlagan. 1940-yilda O‘zbekistondagi barcha aspiranturada 347 kishi tahsil olgan. Ammo bu respublikada ilmiy-pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni qondira olmas edi. Bu yillarda ilmiy kadrlar tayyorlash ishida jiddiy kamchiliklar ham mavjud edi. Aspiranturalarni tamomlab chiqayotganlar miqdori jihatidan mavjud oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarining ehtiyojini to‘liq qondira olmas, ko‘pgina aspirantlarning tayyorgarlik darajasi ularning talablariga javob bermas edi. Qolaversa, ayniqsa dastlabki davrlarda, aspiranturaga oliy ma’lumotga ega bo‘lmagan, maxsus fanlar bo‘yicha sinov va imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirgan yuqori kurs talabalari ham qabul qilingan.

Xullas, ko‘rilgan amaliy tadbirlar natijasi o‘laroq ilmiy xodimlar soni yildan-yilga ortib, yangidan-yangi kashfiyotlar amalga oshirilgan. 1939-yilda respublikada jami 3024 ilmiy va ilmiy-pedagog xodim faoliyat yuritgan bo‘lib, ulardan 109 nafari fan doktori va 510 nafari fan nomzodlari edi. Yetishib chiqqan o‘zbek olimlari samarali mehnat qilib, yangi ilmiy yo‘nalish va ilmiy maktablarga asos solgan. Geolog olimlar H.M.Abdullaev, F.O.Mavlonov, matematiklar T.N.Qori-Niyoziy, T.A.Sarimsoqov, fizik U.O.Orifov, biologlar T.Z.Zohidov, J.K.Saidov, A.M.Muzaffarov, A.T.To‘laganov, kimyogarlar O.S.Sodiqov, S.Yu.Yunusov, H.U.Usmonov, K.S.Ahmedov, energetik H.F.Fozilov, tarixchi-arxeolog Ya.G‘.G‘ulomov, faylasuf I.M.Mo‘minov kabi yirik olimlar shular jumlasidan bo‘ldi.

Bu davrda o‘zbek ilm-faniga Z.Umidova (tibbiyot), M.Hojinova (texnika), Z.Saidnosirova (kimyo), S.Mirkamolova (geologiya), M.A.Orifxonova, F.Yoqubova (biologiya), F.Yusupova, F.Yo‘ldoshboeva (tarix) X.Sulaymonova (huquqshunoslik) kabi yetuk olimalar ham kirib kelib, yurt ilm-fani taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan.

Madaniy qurilish muammolari muhim xalq xo‘jalik ahamiyatiga molik aniq ilmiy masalalarni izchil ishlab chiqishni talab qilgan. Respublika Fanlar Qo‘mitasi bu sohada katta ishlarni amalga oshirgan. O‘zbekistondagi mavjud ilmiy-tadqiqot muassasalarida 1939-yili ilmiy bilimlarning ko‘pgina tarmoqlari bo‘yicha 1152 ta mavzu ishlab chiqildi[5, C-325]. 1939-yili respublikadagi ilmiy muassasalarning soni 75 taga yetdi, ulardan 25 tasi ilmiy-tadqiqot institutlari va ularning filiallari, 23 ta esa tajriba stansiyasi va boshqa

ilmiy muassasalar edi. Ularda 3024 ta ilmiy xodimlar izlanishlar olib borgan[6, C-331]. Ammo bu yutuqlar sovet totalitar tuzumining emas, balki eng avvalo milliy intelligensiyaning say’-harakatlari natijasi bo‘lgan.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, garchi, hokimiyatni bolsheviklar egallab, barcha sohalarda o‘z mafkurasini ustunligini ta’minlagan bir paytda mamlakatda ilm-fan va ilmiy tadqiqotlar to‘xtab qolmay rivojlanishda davom etdi. Lekin, sovetlar barcha ilmiy yo‘nalishlarga o‘z ta’sirini o‘tkazdi va ilm-fan ham bu davrda ancha siyosiy tus oldi. Sho‘rolar manfaatiga xizmat qiladigan ilmiy sohalar birinchi galda qo‘llab quvvatlanib, ular har jihatdan rag’batlantirilgan. Bir qator ilmiy muassasalar va oliygohlar tashkil etilib ilk bor ularning qoshida barcha fan yo‘nalishlari bo‘yicha yoshlarni ilmga jalb qiluvchi aspiranturalar tashkil etildi. Va u yerga iqtidorli talabalar qabul qilindiki, keyinchalik tinglovchilarning aksariyati respublikadagi o‘z sohalarining yetuk mutaxassislari bo‘lib yetishdilar hamda o‘zlarining ilmiy maktablariga asos soldilar. Dastlabki paytlarda ilm yo‘lida asosan boshqa millat vakillari xizmat qilib, keng tadqiqotlar olib brogan bo‘lsa, vaqtlar o‘tishi bilan mahalliy millat vakillarining ham salmog’i ortib borgan hamda ular mamlakat ilm-fan taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan. Ana shunday olimlardan arxeologiyada Ya.G’ulomov, falsafa yo‘nalishida I.Mo‘minov kabilar ana shunday o‘z maktabi ega olimlar edilar. Bu vaqtda aniq va tabiiy fanlar bilan bir qatorda ijtimoiy fanlarda ham yangidan yangi ilmiy izlanishlar olib borildi. Ammo ularning barchasi kommunistik mafkuraga xizmat qilishga majburlanib, unga bo‘ysunmaganlar so‘zsiz qatag’on qilindi. Shunday og’ir sharoitda ham O‘zbekistonda ilm-fani rivojlanishda davom etib, o‘zbek olimlari har qaysi fan sohasida dunyoga mashhur bo‘ldi. Ular tomonidan ilgari surilgan ilmiy farazlar, gipotezalalr va yangiliklar jahon ilm-fanida tan olinib, chin ma’noda shuhrat keltirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.XX асрнинг дастлабки ўттиз йиллигида Ўзбекистонда тарих фани (Тарихшунослик очерклари). II қисм. –Т.: Фан, 1994; Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммоларига Янги чизгилар. – Т.: Шарқ, 1999.

2.Шамсутдинов Р. Истиқлол йўлида шаҳид кетганлар. – Т.: Шарқ, 2001. – 9-30 бетлар.

3.Социалистическая наука и техника. 1937, № 8, -С.54.

4.Шарипов Ф. Народное образование в Узбекистане. – Т.: Узбекистан, 1977. – С.63.

5.Советский Узбекистан за 40 лет. Статсборник. – Т.; Узбекистан, 1965. -С. 325.

6.Народное хозяйство Узбекской ССР в 1965 году. Статсборник. – Т.;Узбекистан, 1966. – С.331